

## **POLIMER MATERIALLARNING TURLI MUHITLARDA RADIATSION QAYTA ISHLANGANDAN SO'NG XOSSALARINI O'RGANISH.**

*Otaboyeva Gulmira Komolidin qizi*

*"Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi" kafedrasи stajyor-o'qituvchi*

*E-mail: [Otaboyeva6343@gmail.com](mailto:Otaboyeva6343@gmail.com) T:+99891 478 63 43 Andijon mashinasozlik  
instituti*

**Annatatsiya.** Polietilenli qoplama namunalaridagi ichki kuchlanish nurlantirishning dozalaridan kelib chiqqan xolda murakkab xarakterga ega bo'ladi, ya'ni oz dozalarda kamayadi, ko'p dozalarda ortadi.

**Kalit so`zlar:** Termoplast, polimer qoplamlar, nurlantirish, polietilen, agdezion, radiatsiyasi, pentoplast, pentoplast qoplamlar, polimerlar, mexanik xossalar.

### **ИЗУЧЕНИЕ СВОЙСТВ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОСЛЕ РАДИАЦИОННОЙ ОБРАБОТКИ В РАЗЛИЧНЫХ СРЕДАХ.**

*Otaboyeva Gulmira Komolidin қизи кафедра "Материаловедение и  
технология новых материалов" ассистент. Электронная почта:*

*[Otaboyeva6343@gmail.com](mailto:Otaboyeva6343@gmail.com) T:+99891 478 63 43 Андижанский  
машиностроительный институт*

**Аннотация.** Внутренние напряжения в образцах полиэтиленовых покрытий имеют сложный характер в зависимости от дозы облучения, то есть уменьшаются при малых дозах и возрастают при больших.

**Ключевые слова:** Термопласт, полимерные покрытия, облучение, полиэтилен, адгезия, облучение, пентопласт, пенопластовые покрытия, полимеры, механические свойства.

### **STUDYING THE PROPERTIES OF POLYMER MATERIALS AFTER RADIATION PROCESSING IN DIFFERENT ENVIRONMENTS.**

*Otaboyeva Gulmira Komolidin qizi assistent at department of "Materials science  
and technology of new materials" E-mail: [Otaboyeva6343@gmail.com](mailto:Otaboyeva6343@gmail.com) T:+99891  
478 63 43 Andijan machine building Institute*

**Annotation.** The internal stress in polyethylene coating samples has a complex character depending on the dose of irradiation, that is, it decreases with small doses and increases with high doses.


**Keywords:** Thermoplast, polymer coatings, irradiation, polyethylene, adhesion, radiation, pentoplast, pentoplast coatings, polymers, mechanical properties.

Termoplast asosli kompozitsion polimer qoplama materiallarning fizik mexanik xossalariiga  $\gamma$ -nurlarni turli oraliq dozalarida radiatsiyasi ta'siri o'rGANildi. Termoplast asosli kompozitsion polimer qoplamlar sifatida polietilen va pentoplast qoplamlar o'rGANildi.

1-2 rasmlarda temir orqa yuzasidagi mustaxkamlik bo'yicha turli xil bo'lgan,  $\gamma$ -nurlarda nurlantirilgan qoplamlarning ichik kuchlanishi, qoplama pylonkaning mustaxkamligi va adegizion xossalar qiymatlari ko'rsatilgan.

Nurlantirish  $\gamma$  -nurli qurilmada  $So^{60}$  izotopida quyidagicha o'tkazildi: bog'lamdagi xarorat  $46^0$  ko'p bo'lмаган, atmosfero bosimi 714-718 mm rt. st., doza quvvati-330 rentgen/sek. Namunalar olingandan so'ng 24 soat o'tib nurlantirildi va 4 sutka davomida sinovdan o'tkazildi.

Polietilenning indeksidan kelib chiqqan nurlanishning aniq dozasigacha qoplamlarning agdezion mustaxkamligi 20-90% ortadi, nurlanish dozasining dozasidan orttirilishi esa uning mustaxkamligini kamaytiradi. Agdezion mustaxkamlikning agdezion o'sishi tarqalib ketish indeksi past bo'lgan polietilenda uchraydi. Bu jarayon polimerlarda moleklulyar massaning, qadoqlashning mustaxkamligining o'zgarishi xisobiga tikilish aniqligining va radiatsion kimyoviy birlikning ortishi bilan tushuntiriladi. Ma'lumki, tikiladigan polimerlardagi bo'linish mustaxkamligi tikilishga bog'liqdir.



**Nurlantirish do'zasi, Д, Mrad**

Oqish indeksi


◊ -0,52 i.g/10 min; ■ -1,51 i.g/10 min;  
 △ -3,12 i.g/10 min; x -6,59 i.g/10 min;  
 □ - 10,7 i.g/10 min

**1-rasm.**  $\gamma$ -nurlantirishdan oldin va keyingi polietilen qoplamlarning adgezion mustaxkamlik bog'likligi.

Nurlantirish dozasi qoplamlari pylonkaning buzilish mustaxkamligiga xam sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aniqlangan doza(10-100Mrad)gacha ortadi, keyin pasayadi. Qoplamlari pylonkaning  $\gamma$ -nurlantirishda polimerning krasmtallik darajasiga qaramay, uning makromolekulalari tikilishi bilan tushuntiriladi.

Polietilenning tarqalishining o'sish indeks birligi bo'yicha razrivnoy mustaxkamlik ekstremumi nurlanishning yuqori dozalari oblastiga oralab o'tib ketadi. Bu narsa polietilenning oz plotnost li makromolekulalari shivaniya si uchun ko'p energiya sarfi zaruriyati bilan tushuntirilsa kerak.  $\gamma$  nurlantirish natijasida pylonka mustaxkamligi 40%-70% ga ortishi aniqlandi. Ko'proq effekt polietilenda tarqalish indeksning sezilarli o'zgarishi bilan kuzatiladi.

Polietilenli qoplama namunalaridagi ichki kuchlanish nurlantirishning dozalaridan kelib chiqqan xolda murakkab xarakterga ega bo'ladi, ya'ni oz dozalarda kamayadi, ko'p dozalarda ortadi.




**2-rasm.** Plastik qoplamlarni valentlik nurlanish kuchiga tasiri.

Polietilen qoplamlarda kamroq ichki kuchlanish 10dan 30 Mrad larda kuzatilishini aytib o'tamiz. Bunda, qoplamlardagi ichki kuchlanish yuqori zichlikdagi polietilening tarqalish indeksidan kelib chiqqan xolda 50% gacha kamayishi mumkin.

Shunday qilib, polietilenli qoplamlarni  $\gamma$  nurlarda radiatsiyali qayta ishslashdan, ularning fizikaviy kimyoviy xossalarni o'stirish maqsadida foydalanishni 10 dan 30 Mrad gacha bo'lgan oraliqda dozalarda bajarish mumkin. Bundan ortiq ravishda dozalarni oshirish, qoplamlarni agdezion mustaxkamligini pasayishiga va ichki kuchlanishni ortishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida qoplamlarning tarqalish va agdezion mustaxkamlik zaxiralari koefitsienti kamayadi va bu narsa qoplamlarning muxim bo'lgan foydalanish xossalarni yomonlashtiradi.

Pentoplast, polietilenlardan tashkil topgan turli xil namunalarni γ nurlarda qayta ishslash bo‘yicha ko‘pgina tajribalar o‘tkazildi.(2.2-2.3 rasmlar) Bu rasmlardan shuni oson aniqlash mumkinki, nurlantirish a va Nm qoplamlarni sezilarli o‘sishi (ortishi)ga sabab bo‘ladi. Eng yaxshi natija PNP namunasida ko‘rinadi.



**Nurlantirish do‘zasi, Д, Mrad      2EPZ**

**3-rasm.** Nurlantirish dozasini polietilen qoplamlarning mikroqatiqligiga ta’siri

Shu narsa aniqlandiki, polietilen qoplamlardagi (2,94 kN/m) yaxshiroq agdezion mustaxkamlik nurlantirish darjasasi 10-20 Mrad bo‘lgan dozalarda bo‘ladi. pentoplast qoplamlar uchun esa (1,75 kN/m) nurlantirish darjasasi 15-30 Mrad bo‘lganda agdezion mustaxkamlik yaxshiroq bo‘ladi. Keyingi nurlantirish dozalarini orttirish barcha tekshirilayotgan qoplamlar uchun tarqalish mustaxkamligi bo‘yicha 20-30% ga to‘g‘ri keladi. Yuqorida aytilgan nurlantirish dozalarida polietilen qoplamlarning ichki kuchlanishi 50-60%ga kamayadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori nurlantirish dozalari(100-120 Mrad) polietilen va pentoplast qoplamlarning qatiqligini (ularni tashkil etuvchi kompozitsiyalardan kelib chiqib) 40-90% ga orshiradi. Biroq, polietilen va pentoplast qoplamlarning zarba mustaxkamligi, nurlantirishning 100 Mrad dozasidayoq, ikki martaga kamayadi. SHuning uchun, polietilen, pentoplast, qoplamlarning fizikaviy mexanik xossalari yaxshilash uchun nurlantirishning 10-20, 15-30, Mradli darajalari oralig‘ida foydalanish tavsiya etiladi.

### Xulosa.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, yuqori nurlantirish dozalari(100-120 Mrad) polietilen va pentoplast qoplamlarning qatiqligini (ularni tashkil etuvchi kompozitsiyalardan kelib chiqib) 40-90%ga orshiradi. Biroq, polietilen va pentoplast qoplamlarning zarba mustaxkamligi, nurlantirishning 100 Mrad dozasidayoq, ikki martaga kamayadi. SHuning uchun, polietilen, pentoplast, qoplamlarning fizikaviy mexanik xossalarini yaxshilash uchun nurlantirishning 10-20, 15-30, Mradli darajalari oralig'ida foydalanish tavsiya etiladi.

Polietilening tarqalishining o'sish indeks birligi bo'yicha razrivnoy mustaxkamlik ekstremumi nurlanishning yuqori dozalari oblastiga oralab o'tib ketadi. Bu narsa polietilening oz plotnost li makromolekulalari shivaniya si uchun ko'p energiya sarfi zaruriyati bilan tushuntirilsa kerak. γ nurlantirish natijasida pylonka mustaxkamligi 40%-70% ga ortishi aniqlandi. Ko'proq effekt polietilenda tarqalish indeksning sezilarli o'zgarishi bilan kuzatiladi.

Polietilen qoplamlardagi (2,94 kN/m) yaxshiroq agdezion mustaxkamlik nurlantirish darajasi 10-20 Mrad bo'lган dozalarda bo'ladi. pentoplast qoplamlar uchun esa (1,75 kN/m) nurlantirish darajasi 15-30 Mrad bo'lganda agdezion mustaxkamlik yaxshiroq bo'ladi. Keyingi nurlantirish dozalarini orttirish barcha tekshirilayotgan qoplamlar uchun tarqalish mustaxkamligi bo'yicha 20-30% ga to'g'ri keladi. Yuqorida aytilgan nurlantirish dozalarida polietilen qoplamlarning ichki kuchlanishi 50-60%ga kamayadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

- Исмоилов И.И., Джалилов А.Т., Аскаров М.А. Химия активных полимеров и олигомеров. –Ташкент: Фан, 1993.– 231с.
- Аскаров М.А., Ёриев О., Ёдгоров Н. Полимерлар физикаси ва химияси. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993.–231б.
- Кулезнёв В.Н., Шершнев В.А. Химия и физика полимеров.– М.: Высшая школа, 1988. –312 с.
- Крагельский И.В. Трение волокнистых веществ. – Л: Гизлэгпром, 1941. – 126 с.
- Негматов С.С. Условия эксплуатации основных рабочих органов машин и механизмов для уборки и переработки хлопка-сырца. –Ташкент:Фан, 1980. – С. 6-15.
- Хафизов И.К. Применение кожезаменителей в виде ленты для валичных джинов с рабочим барабаном увеличенного диаметра // Хлопковая промышленность. – Ташкент, 1975. – №3. – С.16.
- G. Otaboyeva. Termoplast kompozitsion polimer materiallardan namunaviy qoplamlar olish va ularni turli muhitlarda qayta ishlash usullari. Belarus, International Conference, 2023 yil